

## SHE'RIYATI BILAN SHAXSIYATIDAGI UYG'UNLIK

*Laylo Sharipova - BuxDU professori, f.f.d.*

**Annotatsiya:** XX asrning 50-60-yillarida Buxoro adabiy harakatchiligining faolligi susaydi. 70-yillarda qayta jonlanib, ijodkorlar safi kengaydi. Ular orasida Sharif Nurxon zukko, quvvayi hofizasi o'tkir, elsevar shoir sifatida xalqchil she'riyat yaratdi. Uning she'rlari o'ziga xos ediki, maqolada shu haqda fikr boradi.

**Kalit so'zlar:** she'r, band, qofiya, g'azal, murabba', doston, barmoq vazni, bayoz, janr, she'riyat.

Sharif Nurxon 1901-yilda Buxoro shahridan uncha uzoq bo'lmagan Vahmkor qishlog'ida (hozirda Buxoro tumaniga qarashli hudud) kambag'al dehqon Nurxon Turdi oilasida dunyoga keldi. Onasi Sulton Sattor qizining o'ninchi farzandi Sharif edi. Professor S.Aliev muchaliga asoslanib, shoirni 1900-yilda tug'ilgan deb hisoblaydi. Professor O.Safarov esa Vahmkor qishlog'i emas, Vaqfkor qishlog'i deb sanaydi. Shoir dastlab "Hofiz", "Hofizcha" taxalluslari bilan she'rlar bita boshlagan. Keyinchalik "Sharifiy" taxallusini qo'llashni ma'qul topgan. Shoir inson umri mohiyatini chuqur anglagan pallalarda ham bog'bon, ham shoir edi. Bu hol quyidagi satrlarida o'z aksi-ifodasini topdi:

Agar o'lsam tanim xoki nisor bo'lsin nihollarga,  
Yurak-bag'rimdagi otash behi, olma, anor bo'lsin.  
Hovuchimda danak olib o'lay, ko'ming, nihol unsin,  
Sharifiyning mozori ham behishti mevazor bo'lsin [3.36].

Insonning tuproqdan bino bo'lgani va tuproqqa qaytishi, biz bosib turgan tuproq kimdir ekanini Umar Xayyom go'zal tarzda satrlarga aylantirganiga qanchayin asrlar bo'ldi. Bu falsafiy fikrni ko'plab shoirlarimiz o'ziga xos tarzda she'rlarida ifodalaydilar. Ammo Sharif Nurxonning bu satrlari yetuk shoir Umar Xayyom satrlari bilan bellasha oladi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Folklorda ifoda etiladigan evrilish o'zbekona, betakror tarzda berilgan. Shoir o'z xokining nihollarga nisor bo'lishini istaydi. Uning tuprog'ida yurak-bag'ridagi otash ham bor. Bu otash aynan behi, olma, anorga aylansin. Shoir o'layotganida ham hovuchida danak bilan o'lmoqchi. Dunyodan o'tganida ham nihol ko'kartira olsin. Kimdir qabrimda daraxt ko'kartiradimi, deb termulib o'tirmasin. Xalqimiz azaldan qabriston marmar toshlardan emas, daraxtzordan iborat bo'lishini, ruhi obod joyda orom olishini istagan. Sharif Nurxonning bu satrlari shoirning yuksak iste'dodidan darak beradi.

Shoir 68 yoshga to'lganida she'rlari "Madhiya" nomli jamoa to'plamiga kiritildi. Muborak 70 yoshga to'lganida g'azallari "Chertganda dutorimni" bayozida berildi. Afsuski, aksariyat g'azallar davrbop, mafkura ta'siri bor g'azallar bo'lib, ataylab

saylab olingan edi. Ammo shu she'rlar orasida ham shoirning yetuk she'rlari bor edi. Qizig'i shundaki, g'azallar deyilsa-da, 18 ta she'rdan o'n bittasi g'azal, uchtasi murabba', bittasi musaddas, bittasi fardlar, ikkitasi barmoq vaznidagi she'r ekan. Kitobning yuzida shoir nomi Sharifiy emas, Nurxon sifatida keltirilmoqda. Bularning bari bayoz tayyorlangandagi nuqsonlar demakdir. Maqtovli jihati shuki, aruz vaznida ijod qilayotganlarga e'tibor qilingan. Shoirning Hamid Olimjonga bag'ishlangan muvashshahi ham shoirning adabiyot nazariyasidan boxabar, bilimdon shoir ekanini anglatadi. Muvashshah g'azal janrida yozilgan bu she'rning oxirgi baytiga diqqat qiling:

Olib she'rimning bosh harfin o'qib nomingni el bilgay,

Nodir durlar Sharifiyga qo'yib ketgan saxiy karvon[5.35].

Shoir qaysi mavzuda, qaysi janrda, qaysi vaznda she'r bitmasin, ko'nglidan kechganlarini samimiy, xalqona tarzda ifoda etadi. Bu satrlar yuragingizga kirib boradi:

Ayrilig' dardi yiqitdi g'am tegirmoni aro,

Xoru zor jismim ezilib bo'ldi gard birla g'ubor.

E g'uborim, sevgilimni yuzlariga qo'nmangiz,

Bo'lmasin oydek jamoli xira nurli, dog'dor.

Joylashib kavshini qo'ygan kiygizini ostiga

Men uchun o'pib oyog'in yayrasin u dilfigor.

Yursa ham mahsi-yu kafshin tovushiga jo'r bo'lib,

Bu Sharif Nurxon so'zi deb kuylashing gul yor-yor[1.36-37].

Kamtarligi sababmi, adabiy muhitda har kimning o'z tashvishi bilan o'vorligimi, shoirning ilk she'riy kitobi uning vafotidan so'ng muxlislariga yetdi. Tabarruk 80 yoshni qarshilagan shoir o'limidan bir kun oldin ham muxlislariga she'rlar o'qib bergan edi. Bu uning bir daqiqa ham bekor o'tirmaganini, har doim faoliyatda bo'lganini ko'rsatadi. Bu hol ham biz qalamkashlarga munosib darsdir. Bugun bir-ikki jajji kitobchasini ustozlar ko'magida chop ettirgan qalamkash ham o'zini osmon his qilsa, izlanmasa, o'qimasa, Sharif Nurxonlardagi kamtarlik ibrat bo'lishi lozim.

Shoirning ilk she'riy to'plami "Yaxshidan sharofat" nomi bilan 5000 nusxada iqtisod qilingan qog'ozlar hisobidan bosildi. Undagi bir-biridan go'zal, betakror she'rlar shoirning talantini bizga namoyish qiladi. G'azallar, muxammaslar, musaddaslar, masnaviylardan iborat bu kitobdagi har bir she'r xalq og'zaki ijodi sarchashmasidan suv ichganini namoyish qilib turibdi. "Til", "Qarishga vaqt topolmaydir", "Nasihati", "Mevazor bo'lsin", "Navo chiqdi", "Suv yuzida iz bo'lmaydir", "Men o'lsam..." kabi she'rlari oddiy folklorizmga boyligi, aforizmlari bilan yoshlar tarbiyasi yo'lida muhim ahamiyat kasb etadi:

Chumchuq o'sib semirsa ham g'oz bo'lmaydir,

Suv yuzida yuz yursang ham iz bo'lmaydir.

Ming yil yashab yayrasang ham olam aro  
 Yoshligingdek lazzatga boy kez bo‘lmaydir.  
 Yaxshilarning yuragida g‘araz bo‘lmas,  
 Quyoshni ko‘r, quchog‘ida muz bo‘lmaydi [1.63].

Shoir oddiy hayot haqiqatlarini chiroyli bir tartibda ketma-ket keltiradiki, ulug‘ falsafiy ma‘no manzaralari paydo bo‘ladi. Yurakdan buloqday otilib chiqqan samimiy tuyg‘ular vazn shodasida durlarga aylanadiki, she‘rxonning ko‘nglini zabt etadi.

Sharif Nurxonning ikkinchi she‘riy to‘plami ustoz shoir Toshpo‘lat Ahmad so‘zboshisi ostida 2006-yilda nashr etildi. Kitob oldingi to‘plamdan to‘ldirilgani bilan tafovutlanadi. “Buxoro sayri” bugungi Buxoro haqida yozilgan misol taassurot qoldiradi. Muxammasning oxirgi bandini o‘qib ko‘ring:

Bu ulug‘ tubsiz xazina, boyligining soni yo‘q,  
 Madhini eshitsu har kim, ko‘rmasa imkoni yo‘q,  
 Bor ajib ohanrabosi, mehrining poyoni yo‘q,  
 Shunda tug‘ildi Sharifiy, ko‘nglining armoni yo‘q,  
 Do‘stlarim, tezroq kelingiz gul Buxoro sayriga [2.55].

Haqiqiy she‘r qancha davrlar o‘tsa ham eskirmaydi. She‘rxonga ma‘naviy quvvat, ruhiy madad, betakror zavq berishda davom etadi. Shoir she‘rlari shunday kuchga ega. Sharif Nurxon she‘riyatida ko‘tarinki ruh, yaxshilikka yetaklovchi bitmas qudrat bor. Bu shoir tabiatida mavjud fe‘l-atvorning ifodasidir. U kishi goh yor tavsifini keltirib, muhabbat haqida yonib-kuyib yozsa, goh hajviy she‘rlar bitadi. Hajvi ham xalqonaki, shoirning topqir, zukko ekaniga hayratlanasiz. Quyidagi satrlar bolalagimdan buyon qo‘shiq tarzida qulog‘im ostida jaranglaydi. Ammo uning muallifi Sharif Nurxon ekanini bilmas ekanman. She‘r xalq qo‘shiqlari singari keng tarqab ketgan:

Onajonim, siz bilasiz fe‘limni,  
 Shu kir yuvish to‘sar o‘shish yo‘limni,  
 Bukiltirar nozik nihol belimni,  
 Sovun dag‘al, og‘ritadi qo‘limni [2.125].

She‘rlari xalqning mulkiga aylanib ketishi ham saodat. Taqdir ranju-ozorlarini yengib, xalq e‘tiborini qozongan shoir, darhaqiqat, saodatlidir. Sharif Nurxon sabr-toqat, iroda, imon, mehnat orqasidan baxtga erishdi. O‘zidan zaminimizga chorbog‘, she‘riyatimizga go‘zal va xalqona ruhdagi she‘riyatni, el ko‘ngliga muhrlangan mehrini, samimiyatini qoldirib ketdi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedova, Shoir, and Sofiya Mahmudova. "ABU ALI IBN SINA ON A CRITICAL BIOGRAPHICAL ESSAY." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.7 (2022): 795-799.
2. Axmedova, Shoir. "THE ROLE OF THE JADID PRESS IN THE FORMATION OF UZBEK LITERARY CRITICISM." *Конференции*. 2021.

3. Ахмедова, Ш. Н., & Назарова, Д. (2021). АДАБИЙ ПОРТРЕТ ЖАНРИНИНГ НАЗАРИЙ ЖИҲАТЛАРИ ХУСУСИДА. *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА*, 4(3).
4. Ахмедова, Шоира Нематовна. "ЎЗБЕК ВА ФРАНЦУЗ АДАБИЁТШУНОСЛИГИДА ПОРТРЕТНАВИСЛИК ТАРАҚҚИЁТИ." *МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА* 3.6 (2020).
5. Ахмедова Ш. Н. ХУРШИД ДАВРОННИНГ АДАБИЙ–ЭСТЕТИК ҚАРАШЛАРИ: Ахмедова Шоира Нематовна, БухДУ ўзбек адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. доктори //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 6.2. Махсус сон. – С. 20-28.
6. Ахмедова, Шоира Нематова. "ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ." *Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития* (2019): 12-14.
7. Ахмедова, Шоира Нематовна, Лосеева-Танем Бахтияри, and Насима Саидбурхановна Кадирова. "О Творческой Специфике Литературной Критики." *Miasto Przyszłości* 42 (2023): 326-329.
8. Bakhtiyorovna N. N. CREATIVE ABILITIES OF THE ARTIST IN THE APPLICATION OF THE ART (ON THE EXAMPLE OF THE LYRICS OF OSMAN KOCHKAR).
9. Baxtiyorovna N. N. USMON QOCHQOR LIRIKASIDA MUHABBAT MAVZUSINING TALQINI: DOI: 10.53885/edinres. 2021.71. 75.119 Norova Nasiba Baxtiyorovna, BuxDU Ozbek tili va adabiyoti kafedrasida tayanch doktoranti (Ozbekiston) //Научно-практическая конференция. – 2021.
10. Давронова Ш. Адабий таъсир ва ижодийлик //Иностранная филология: язык, литература, образование.–2016. – 2016.
11. Davronova S. THE ORIGINALITY OF THE ARTISTIC IMAGE AND THE TRUTH OF LIFE IN THE NOVELS OF ULUGBEK KHAMDAM //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 06. – С. 49-53.
12. Davronova S. MODERN ÖZBEK ROMANLARINDA KÂMİL İNSAN TERBİYESİ MESELESİNİN ELE ALINIŞI //Electronic Turkish Studies. – 2017. – Т. 12. – №. 15.
13. Davronova S. Mythology in intellectual novels //Theoretical & Applied Science. – 2015. – №. 4. – С. 40-43.
14. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
15. Davronova S. КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА “ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ”(«ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ»)) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 9. – №. 9.

16. Давронова Ш. ҚИССАДА БАДИИЙ ДАЛИЛЛАШНИНГ ЎРНИ: Шоҳсанам Давронова БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, ф. ф. доктори //Научно-практическая конференция. – 2021.
17. DAVRONOVA S. TARİHİ ROMANDA MUTASAVVIF BİLGİN SİMASI //DİL VE EDEBİYAT ARAŞTIRMALARI I. – С. 108.
18. G'aybulloevna D. S. The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of "The Missing Motherland") //Indonesian Journal of Innovation Studies. – 2022. – Т. 18.
19. Gaybulloevna, D. S., & Bakhtiyorovna, N. N. PSYCHOLOGIST IN ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL" FATHER.
20. Laylo Sharipova. (2024). BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA'В ZARSHUNOSI. *Konferensiyalar | Conferences, 1(4)*, 67–70. Retrieved from <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/1751>
21. Nematovna, Akhmedova Shoira. "GENRE OF LITERARY PORTRAIT IN THE WORKS OF ALISHER NAVAL." *SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА*: 127
22. NEMATOVNA, A. S. ., SAIDBURKHONOVNA, K. N. ., & BEKMURODOVNA, K. O. . (2021). METHODOLOGY AND SKILLS PROBLEMS. *The Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27(5)*, 778–784. Retrieved from <https://cibgp.com/au/index.php/1323-6903/article/view/2022>
23. Norova N. Principal Directions of Studying the Problem of Style in Literature (on the Example of U. Kochkor's Lyrics) //JournalNX. – С. 913-915.
24. Norova N., Nigina M. OMON MATJON SHE'RLARIDA QUSHLAR TIMSOLI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 13. – №. 3. – С. 27-30.
25. Nasiba N. UDC: 821.512. 133 TRADITION AND INNOVATION IN USMON KUCHKOR'S POEMS //SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY. – С. 100.
26. Norova N. B. Creative abilities of the artist in the application of the art (on the example of the lyrics of osman kochkar) //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 214-221.
27. Norova N. Artistic skills in Usmon Kuchkor poetry //центр научных публикаций (buxdu. Uz). – 2022. – Т. 15. – №. 15.
28. Norova N. УСМОН ҚЎЧҚОР УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА: УСМОН ҚЎЧҚОРНИНГ “ЛАЗИЗЖОН МАРСИЯСИ” ШЕЪРИ ХУСУСИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
29. Norova N. ҲОЗИРГИ ШЕЪРИЯТДАГИ ПОЭТИК ЯНГИЛАНИШЛАР ҲАҚИДА //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 16. – №. 16.
30. Norova N. Usmon Qo 'chqor lirikasidagi obrazlar turkumi //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.

31. Норова Н. Б. УСМОН ҚЎЧҚОР ШЕЪРИЯТИДА ТАБИАТ ТАСВИРИ ТАЛҚИНИ: Норова Насиба Бахтиёрвна, Бух ДУ ўзбек адабиёти кафедраси ўқитувчиси, (PhD) //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1.
32. Chertganda dutorim. She'rlar. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1971. – В.35.
33. Sharif Nurxon. Yaxshidan sharofat. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – В.63.
34. Sharif Nurxon. Mendan salom ayting. –Buxoro: “Buxoro”, 2006. – В. 55.
35. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
36. Sharipova L. Literary yor-yor //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – Т. 1. – №. 4. – С. 218-222.
37. Шарипова Л. БОҚИЙ МАВЗУДА БИТИЛГАН ШЕЪРЛАР: Шарипова Лайло, ф. ф. д., ўзбек тили ва адабиёти кафедраси доценти, Бухоро давлат университети //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 5. – С. 52-56.
38. Sharipova L. XX asrning 70–80-yillari o ‘zbek she’riyatida folklorizm // Toshkent: Fan. – 2011. – Т. 153.
39. Шарипова Л. ТИЛАК ЖЎРА ШЕЪРИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИКЛАРИ: Лайло Шарипова, БухДУ ўзбек тили ва адабиёти кафедраси профессори, ф. ф. д //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 4. – С. 53-56.
40. Sharipova L. MUALLIFI SINGARI DILBAR SHE’RLAR.. //INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2024. – Т. 2. – №. 19. – С. 64-69.
41. Sharipova L. Замонавий шеъриятда ёмғир образи //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
42. Шарипова Л., Низомова К. ЎЗИГА ХОС ШЕЪРИЯТ //Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 19-21.
43. Sharipova L., Boboxo‘Jayeva L. A. XALQ OG ‘ZAKI IJODINING USMON AZIM IJODIGA TA’SIRI MASALASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 6. – С. 948-952.
44. Sharipova L. HAM TA’LIM, HAM TARBIYA BERUVCHI SHE’RLAR.. //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – Т. 1. – №. 12. – С. 169-173.
45. Sharipova L. ALISHER NAVOIY IJODIDA LUG ‘Z //Academic research in educational sciences. – 2023. – Т. 4. – №. Conference Proceedings 1. – С. 387-391.
46. Shokhsanam Davronova 2021. UZBEK NOVEL IN THE INDEPENDENCE PERIOD: TRADITION AND NOVELTY ISSUES. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*. (Feb. 2021), 679–683.